

# Zamonaviy filologik tadqiqotlar:

nazariya, amaliyot va innovatsion  
metodlar

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Qarshi-2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OSIYO TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

**ZAMONAVIY FILOLOGIK  
TADQIQOTLAR: NAZARIYA,  
AMALIYOT VA INNOVATSION  
METODLAR**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

2025-yil 24 oktabr

**QARSHI – 2025**

**UO`K81.(063):001.891**

**BBK 81.а043**

**“Zamonaviy filologik tadqiqotlar: nazariya, amaliyot va innovatsion metodlar”**  
mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Qarshi, 2025. – 733 bet.

Mazkur to'plamda zamonaviy filologiyaning dolzarb masalalari — nazariy yondashuvlar, amaliy tahlil usullari hamda innovatsion metodlarning qo'llanilishi yoritilgan. Unda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya sohaslariga oid ilmiy maqolalar jamlangan bo'lib, zamonaviy tadqiqot uslublarining samaradorligi, til va adabiyotdagi yangi tendensiyalar, lingvokulturologik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar asosida olib borilayotgan filologik izlanishlar tahlil qilingan. To'plam filologiya sohasi tadqiqotchilari, doktorantlar, magistrantlar hamda til va adabiyotga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

**MAS'UL MUHARRIR**

**Xo'jamurod Jabborov – filologiya fanlari doktori, professor**

**TAHRIR HAY'ATI**

Raxmonov L.T.	– Osiyo texnologiyalar universiteti rektori
Davlatov O.D.	– Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshidagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor
Ibragimov E.X.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori
Axunjonov U.M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori
Abdullayev O'.Sh.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy-innovatsion tadqiqotlar departamenti boshlig'i
Hamidov X.X.	– Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Shofiyev O.B.	– Termiz davlat universiteti prorektori, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
G'aniyev I.M.	– filologiya fanlari doktori, professor
Kilichev B.E.	Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Daniyeva M.	– Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Imomova G. M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Ochilov N.K.	– Osiyo texnologiyalar universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Xo'jamurodova O.X.	– Osiyo texnologiyalar universiteti Tillar kafedrasini mudiri
Normamatov X. M.	– Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi
Shomurotova Ch.R.	– Osiyo texnologiyalar universiteti o'qituvchisi

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Osiyo texnologiyalar universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan (2025-yil 27-sentabr, 2-son bayonnoma)

To'plamga kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas'uldir.

© Osiyo texnologiyalar universiteti, 2025.



78.	<b>Boqiyev Nurali Abdurashid o'g'li, Olimjonova Maftunaxon Omiljon qizi</b> MUQOBILI YO'Q SO'ZLARNI TARJIMA QILISH USULLARI	321
79.	<b>Javliyev Feruz Komilovich</b> JAHON ILM-FANIDA INSON SALOMATLIGINI AXLOQIY-ESTETIK ASOSLARINI SAQLASH VA UNI MUSTAHKAMLASH MUAMOLARI	326
80.	<b>Акратова Насиба Хамитовна, Каримов Ислам Одилович</b> ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ РЕЧЕВОГО ЭТИКЕТА У ШКОЛЬНИКОВ В ШКОЛАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ	329
81.	<b>Abdumalikova Gulshoda Shuhrat qizi, Soliyeva Zilola Ma'murjon qizi</b> KOMPYUTER LINGVISTIKASI SOHASI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI	333
82.	<b>Аннаева Лола Расуловна</b> ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ XXI ВЕКА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ	337
83.	<b>Sobirova Zarnigor G'anijon qizi</b> TRANSFORMER MODELLARI YORDAMIDA O'ZBEK TILI MATNIDA TINISH BELGILARINI TIKLASH	342
84.	<b>Bozorova Sevara Kamol qizi</b> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SAVDO LEKSIKASINING TANQIDIY DISKURS TAHLILI	348
85.	<b>Elmirzaeva Zarina Obidin qizi</b> GUL LEKSEMASI ASOSIDAGI KONNOTATSIYALARDA MILLIY-MADANIY BELGILAR IFODASI	352
86.	<b>Mamatova Shakhnoza Hoshim qizi</b> COMPARATIVE LINGUISTIC APPROACHES TO THE ADAPTATION OF INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE	355
87.	<b>Daliev Ezoza</b> THE IMPACT OF DIGITAL DISTANCE LEARNING ON FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION	359
	<b>4-SHO'BA. ADABIY ALOQALAR VA TARJIMA MUAMMOLARI</b>	361
88.	<b>Xayrulla HAMIDOV</b> "CHOLIQUHI" ROMANI O'ZBEK TILIDA	361
89.	<b>Xayrulla HAMIDOV, Otabek MUXAMMADJONOV</b> SINXRON TARJIMADA KOMMUNIKATIV VAZIYAT	367
90.	<b>Marufjon Karimov</b> "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDAGI TASVIRIY VOSITALAR TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI	371
91.	<b>Marufjon Karimov</b> "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDAGI SINEKDOXANING BADIY FUNKSIYASI VA TARJIMALARDA AKS ETISH MASALASI	375
92.	<b>Yokubjonova Dilnavozxon Serobjon qizi</b> TRANSLATION PROBLEMS AND THEIR IMPACT ON WORLD LITERATURE	378
93.	<b>Hazratqulova Ozoda Abdug'aniyevna</b>	383



## 4-SHO'BA. ADABIY ALOQALAR VA TARJIMA MUAMMOLARI

### *"CHOLIQUSHI" ROMANI O'ZBEK TILIDA*

*(Tarjimada so'z, iboralarni tanlash va "soxta ekvivalentlik" muammosi)*

Xayrulla HAMIDOV

Filol. f.d., professor,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,

E-mail: [hamidovx@gmail.com](mailto:hamidovx@gmail.com)

"Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik" tamoyili asosida O'zbekiston va Turkiya Respublikalari davlat rahbarlari orasida so'nggi yillarda olib borilayotgan muloqot natijasida ikki qardosh xalq orasida mustahkamlangan do'stlik aloqalari ilmiy-adabiy munosabatlarda ham izchil davom ettirilmoqda. O'zbek adabiyotini Turkiyada, turk adabiyotini O'zbekistonda targ'ib etish borasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilayotgani buning misolidir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifi bilan turkiy davlatlar ijodkorlari asarlarining o'zbek tilidagi tarjimalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" yuz jildligi nashr etilganligi bu boradagi olamshumul qadam hisoblanadi [1,271].

Mazkur yo'nalishdagi hamkorlikni davom ettirish nafaqat ikki xalq adabiyotini targ'ib etishga xizmat qilishi, balki ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ikki qardosh davlat ziyolilari o'rtasida o'rnatilgan do'stona munosabatlar ilm-fan, badiiy ijod, san'at va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada XX asr turk va jahon adabiyotining atoqli namoyandasi, o'z'ning dunyoga mashhur "Tamg'a" ("Damga") va "Muhabbat simfoniyasi" ("Dudaktan Kalbe") va "To'kilgan yaproqlar" ("Yaprak Dökümü"), "Xotin dushmani" ("Bir Kadın Düşmanı") kabi o'n olti roman, olti hikoyalar to'plami va o'ttizga yaqin pyesalari bilan o'zbek kitobxonlari va kinoixlosmandlariga juda yaxshi tanish adib Rashod Nuri Guntekinning hammaga mashhur "Choliqushi" ("Çalıkuşu") romani va uning atoqli adib va tarjimon Mirzakalon Ismoilij qalamiga mansub tarjimasida muallif uslubining berilishi va tarjimon mahoratining namoyon bo'lishi xususida so'z yuritiladi. Mazkur roman bundan oltmish yildan ko'proq



vaqt oldin tarjima qililib ilk bor nashr etilgan (2-nashri 1965-yilda amalga oshirilgan) va o'tgan 60 yil mobaynida bir necha marta o'n minglab nusxada chop etib kelinmoqda. Roman 2022 yilda nashr etilgan yuz jildli "Turkiy adabiyot durdonalari" jamlanmasining 41-jildini tashkil etgan [2].

Ta'kidlash joizki, ushbu maqolani R.N.Guntekinning ona tilimizga tarjima qilingan yuqorida nomlari zikr etilgan besh yirik romani ustida olib borilayotgan tarjimashunoslik tadqiqotining debochasi sifatida qabul qilish mumkin.

Maqolada "Choliqushi" [3] romanining o'zbek tilida qayta yaratilishi masalasi tarjima-shunoslikning turli nuqtayi nazarlaridan yoritishga harakat qilindi. "Atoqli turk adibining katta iste'dod bilan yozilgan va katta muhabbat bilan o'zbek tiliga o'girilgan "Choliqushi" romani Mirzakalon Ismoilning tarjimaga bo'lgan ulkan muhabbatining bir timsoli bo'lib o'quvchilar qo'liga tegdi"[5].

Ma'lumki, badiiy tarjimada sarlavhalarning berilishi alohida yondashuvni taqozo etadi. Chunki bu farzandga ism qo'yishdek muhim narsa. Bir tarjimon ishni sarlavhadan boshlasa, boshqasi tarjima tugagandan keyin uzoq miulohazadan so'ng "yangi asar"ga "yangi" nom beradi. Bu "Çalıkuşu" ("Choliqushi") romaniga ham bevosita tegishli.

Romanga nom qilib qo'yilgan "choliqushi" so'zining ma'nosi, aslida, turk tilida "Çalıkuşu" (zool. Sariq (qizil) boshli, chumchuqsimonlarga mansub qushcha), so'zma-so'z "butazor, to'qayzor qushi"dir. Ushbu nom bolalik chog'ida o'ta sho'x, "shumtaka", o'ynoqi, tinib-tinchimas, jo'shqin tabiatli qizcha bo'lgani uchun bosh qahramon – Faridaga berilgan laqab bo'lib, u o'zining butun mazmun-mohiyati bilan qizning xarakterini o'zida namoyon etadi ve uning hayotida boshdan oxir hamrohlik qiladi. Rus tiliga "Choliqushi" "Королёк – птичка певчая"<sup>1</sup> (Sayroqi qushcha) deb o'girilgan va asar asosida ishlangan film nomi ham xuddi shunday nomlangan.

Ko'rinib turibdiki, adib va tarjimon M.Ismoiliy roman nomini tilimizga "Choliqushi" shaklida transliteratsiya usulida o'giran. Ushbu nom o'zbek tilida hech qanday ma'no ifodalamaydi. Asar o'zbek tilida "Chittak", "Chumchuq", "Butazor qushi" yoki "Sinchalak" deb nomlanishi ham mumkin edi<sup>2</sup>. Biroq, tarjimon nimagadir bunday yo'l tutishni istamagan. Hayratlanarli jihati, bugun o'zbek kitobxonlari "Choliqushi"ga shunchalik o'rganib qolganki, ushbu nom kitobxonlarda ham, film tomoshabinlarida ham hech qanday bahs-munozaraga o'rin qoldirmayapti.

"Choliqushi" romani o'zining quvvat badiasi bilan jahonga mashhur asarlardan biri, qolaversa, uning asosiy qismi Faridaning esdaliklar daftariga bitilgan maktublar tarzidagi o'ziga xos shakldagi qurilishga ega edi. "Choliqushi" asaridagi Faridani M.Ismoilning Kumushi, degim keladi, deydi adabiyotshunos Z.Isomiddinov.

<sup>1</sup> [https://www.google.co.uz/books/edition/Королёк\\_птичка\\_певчая](https://www.google.co.uz/books/edition/Королёк_птичка_певчая)

<sup>2</sup> Turk tilining katta izohli lug'atida "Çalıkuşu – chumchuqsimonlar oilasidan, boshi qirmizi, gavdasiga qarab ochiq qizil tusga kiradigan, butazor yerlarni sevadigan sayroqi qush (Troglodytes)" shaklida izoh berilgan [10,386]



Endi bevosita asarning tarjimasiga kelinsa, avvalo yaqin tillar orasida badiiy tarjimada soʻz tanlash va buning atrofida yuzaga keladigan muammolardan eng murakkabi – «soxta ekvivalentlar» ustida toʻxtalish lozim.

“Soxta ekvivalentlik” hodisasi, asosan oʻzaro yaqin tillar orasida tarjima amalga oshirilayotganda roʻy beradi. Masalan, turk tilidan oʻzbek tiliga yoki aksincha tarjima jarayonida tillarimizga arabcha yoki forschadan qachonlardir oʻzlashib qolgan va bugunga kelib ikki qardosh tilda farqli maʼnoda qoʻllanilayotgan soʻzlar tarjimonga pand berishi mumkin. Deylik, «chora», «davo», «imkon» maʼnosidagi «iloj» soʻzi hozirgi turk tilida (ilaç) «dori-darmon» maʼnosida qoʻllanadi. U turk tilida «chora, iloj» maʼnosini deyarli ifodalamaydi va koʻp maʼnoli boʻlgani uchun faqat mohir tarjimongina asliyat jumlasini tarjima tilida ishonchli bera oladi.

“Choliqushi” romanidan bir misol: *Kızlarım, ümitsiz hastalıkların, mukadder felaketlerin son bir ilacı vardır: Tahammül ve tevekkül* [3,168]. Ushbu jumla M.Ismoilij tarjimasida quyidagicha beriladi: *Qizlarim, umidsiz kasalliklarning, tabiiy falokatlarning birgina doris bor: chidash va boʻysunish* [4,180]. Turkcha matnda kelgan *ilaç* soʻzi oʻzbekcha tarjimada “dori” deb berilgan va bu yerda soʻzma-soʻz tarjima oʻzini oqlagan. Biroq “*ümitsiz hastalıkların*” birikmasini «umidsiz kasallik» deb emas, «bedavo dard» deb bergan maʼqul edi. Shuningdek, “insonning taqdir-peshonasiga yozilgani” maʼnosidagi “mukadder” soʻzini ham “tabiiy” deb emas, “muqaddar” deb, “*tahammül*” soʻzini “tahammul” deb qoldirish, “tevekkül”ni ham “boʻysunish” emas, «tavakkul» deb berish oʻrinli boʻladi. Zero, bu Rashod Nuri Guntekinning uslubi va tarjimon uni nima qilib boʻlsa ham saqlashga majbur. Shundan kelib chiqib turkcha jumla «Qizlarim, bedavo dardlar, muqaddar falokatlarning eng soʻnggi davosi sabr-qanoat va tavakkuldir» deb oʻgirilsa, asl nusxa yanada ishonchli chiqqan, muallif uslubi toʻliq saqlangan boʻlar edi.

Arabchadan oʻzlashgan “ikrom” soʻzi oʻzbek tilida “hurmat, ehtirom, izzat-ikrom» maʼnosiga ega. Lekin turk tilida ushbu (ikram) soʻzning qoʻllanish maydoni kengroq. Masalan, “hurmat, ehtirom, izzat-ikrom» ushbu soʻzning ikkinchi darajali maʼnosidir. Uning hozirgi turk tilidagi maʼnosi «siylash» dir: *Misafirlere çay ikram edildi (Mehmonlar-ga bir piyola choy berildi)* kabi. Romandan bir misol: *Şimdi artık öğreneceğinizi öğrenmiş sayılacağımız için bir tane (fondan) ikram edebilirim* [3,52]. Tarjiması: *Endi kerakli narsani oʻrganib olganingiz uchun bitta konfet hadya qilaman* [4,54]. Holbuki, jumlanı “Endi bilishingiz kerak boʻlgan narsani bilib olganingiz uchun sizga bitta konfet beraman” deb sodda tilda oʻgirish mumkin edi. Chunki turk tilidagi “öğrenmek” feʼlining berilgan



gapdagi ma'nosi "o'rganmoq" emas, "bilib olmoq", "so'rab-surishtirib bilib olmoq", "ikram etmek" birikmasiniki esa "bermoq", "siylamoq" dir<sup>3</sup>.

Bugungacha tarjima nazariyasida «soxta ekvivalentlik» mavzusi yetarlicha talqin etilgan bo'lsa-da, muayyan janrdagi asar tarjimasiga qanday prinsip asosida yondashish tarjimonlarning intuitsiyasiga havola etilgan bo'lib, ko'p hollarda yaqin tilda bitilgan asar tarjimasida tutilgan yo'l uzoq tildagi asarni ag'darish prinsipidan farq qilmaydi. Bu esa xorijiy badiiy asarga noto'g'ri baho berilishiga olib keladi.

"Choliqushi" romanida shunday bir jumla kechadi: *Ne olduğumu anlatamam. Kılığım, kıyafetim bir şeye benzese neyse. Fakat ayaklarım çıplak, arkamda açık bir beyaz gömlek* [3,265] Tarjiması: *Qanday ahvolga tushganimni so'z bilan aytib berolmayman. Qilig'im, qiyofatim bir narsaga o'xshasa ham go'rga edi: oyoqlarim ochiq, egnimda yarim-yorti badanimni yopib turgan oq ko'ylak* [4, 289]. Tarjimada turkcha jumlaning mazmuni ishonchli berilgan. Lekin, "kılığım, kıyafetim" so'zlari "ust-boshim" yoki "tashqi ko'rinishim" deb emas, "qilig'im, qiyofatim" shaklida so'zma-so'z o'girib qo'yilgan.

«Tarjimon asarni boshqa tilda, ya'ni ona tilida qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o'ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so'z tanlaydi, bu so'zlar ma'nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha to'laroq ifodalash tashvishida yonadi» – deb yozgan edi G'.Salomov [6,57]. Buni uqqan tarjimonni hamisha muvaffaqiyat kutadi. Zero, bir necha sinonim so'z ichidan eng munosibini topib ishlata olish mahorat, tilning eng inja qirralarini chuqur his etish alomati hisoblanadi.

Frazeologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va turk tillarida o'nlab idiomatik birliklar "qil" so'zi asosida yuzga kelgan ekan. Ikkala tilda ham "qil" so'zining ma'nosi deyarli bir xil. O'zbek tilida "ot va boshqa hayvonlarning dum qismi, qillari"; "tola" bo'lsa, turk tilida ("kil") "qil", "tuk", "echki juni" va b. Buni tadqiq etilayotgan romandan olingan quyidagi turkcha jumla va uning tarjiması misolida ko'rib chiqamiz: *"Hacı Kalfa, beni dinlerken gözleri büyümüş, başında saç olmadığı için kaşlarının kolları dimdik olmuştur"* [3,147]. Tarjiması: *"Hoji xalfa so'zlarimni eshitib ko'zlari olaydi, boshida sochi bo'lmagani uchun qoshlarining tuki dikkaydi"* [4,158]. Ushbu jumlanı "Hoji xalfa so'zlarimni tinglar ekan ko'zlari ola-kula bo'lib, boshida sochi bo'lmagani uchun qoshlarining tuklari dikkayib turardi" deb bergan ma'qul.

"Choliqushi" romanida uchraydigan ayrim iboralar insonning jismoniy va ruhiy holatini ifodalaydi: *deve nalbanta bakar gibi bakmak* – tuya taqachiga qaraganday qaramoq, *haline köpekler gülmek* – holiga itlar kulmoq, ya'ni holiga maymunlar yig'lamoq, *bir taşla iki*

<sup>3</sup> Turk tilida *ikram* so'zi asosida ikramiye ("sovg'a, yutuq, siylov") so'zi ham yasalgan. M.: Ikramiyeler pazartesi günü sahiplerine dağıtılacaktır (Yutuqlar (lotereya yutuqlari dushanba kuni (yutuq) egalariga tarqatiladi).



*tavşani virmek* – bir tosh bilan ikki quyonna urmoq, ya'ni bir o'q bilan ikki qushni urmoq, *kuyruğunu kısmak* – dumini qismoq, *kuyruğu dim dik* (dumi tip-tikka) – o'jar, qaysar: *koku(sunu) almak* – bir narsaning hidini olmoq<sup>4</sup>, ya'ni sezmoq kabi.

Turkcha *tüyləri diken diken olmak* (tuklari tikan kabi bo'lmoq) – qo'rquvdan, dahshatdan tuklarining osti qabarmoq, hurpaymoq, *kulak kabartmak*, *kulak dikmek* (quloqlarini dikkaytirmoq, quloqlarini tik qilmoq): *Tavşan gibi kulaklarımı dikmiştim* [3,14]. Tarjimasi: *Quloqlarimni quyunday ding qilib oldim* [4,13]. Bu yerda *kulak dikmek* (quloqlarini ding qilmoq, dikkaytirmoq) iborasining yuzaga kelishiga quyon yoki yumronqoziqning harakati asos olingan. Insonga nisbatan olinganda esa *kulak dikmek* «bir narsani to'satdan eshitib qolib, shubhalanib, aniqroq eshitish uchun diqqatni jamlash» anglashiladi.

Романда қўлланилган фразеологизмлар таҳлил қилинганда уларнинг бир қисми овланадиган жониворларнинг хатти-ҳаракатлари (*kuyruk sallamak* «dumini likillatmoq»), tana a'zolari harakati (*tüyləri diken diken olmak* – «tuklari tikan-tikan bo'lmoq») asosida yuzaga kelganлиги маълум бўлди. Masalan, kichik hayvonning yirik hayvon yoki odamdan qo'rqib «dumini qisishi» *kuyruğunu kısmak* [7,75], hayvonning hushyor tortib, bir narsaga tayyorlanishi *kuyruğu dim dik* (dumini tip-tikka qilmoq), hid sezishi *koku (sunu) almak* – «hid (ini) olmoq» [7,75] iboralariga ko'chgan. Sanab o'tilgan iboralarda insonning «likillab, laganbardorlik qilishi», «qo'rqib, bir chetga o'tishi», «o'jar, qaysar» bo'lishi yoki hayvonlarga xos bo'lgan «hid olishi», ya'ni bir narsani sezib qolishi obrazli ravishda nutqda o'z ifodasini topgan, hayvonlarga xos xatti-harakat va xususiyatlar insonga xos xatti-harakatlar bilan uyg'unlashib, ko'chma ma'no kasb etgan: *Kedi gibi kulak kabartarak durdum* [3,52]. – *Mushukka o'xshab quloqlarimni dikkaytirib turdim* [4,55] kabi. Bu misoldagi *kulak kabartmak* («qulog'ini qabartirmoq», ya'ni quyonna harakatiga qiyos olingan «quloqlarini dikkaytirmoq») iborasi *kulak dikmek* («kulog'ini tik qilmoq») iborasining variantidir.

Yuqoridagilardan chiqariladigan **xulosa** shu:

1. Yaqin tillardan tarjima va ushbu jarayonda so'z va iboralar tanlash masalasiga mutaxassislar ko'p hollarda murakkab ijodiy ish deb qaramaydilar. Balki unga badiiy matnni bir qardosh tildan ikkinchisiga shunchaki ag'darish, tabdil sifatida qaraydilar. Ya'ni, badiiy matnni u tildan bu tilga shunchaki o'tkazib qo'yish va ayrim qiyin, tushunarsiz so'zlarni tushunarli bilan almashtirish deb tushunadilar.

2. Tarjimashunos Z.Isomiddinov yozganidek, «Yaqin tillardan tarjima qilishda «soxta ekvivalentlar»ning tarjimonga pand berish hollari aslida mutarjimning original tilini yetarli darajada bilmasligi tufayli kelib chiqadi» [8,159]. Shuningdek, turk tadqiqotchisi H.Yulduz xulosasi ham buni tasdiqlaydi: «Aldoqchi muqobillar muammosi tarjimonning o'z bilimi va xotirasiga ortiqcha ishonishi, manbalarga e'tibor bermasligi, quntsizligi, bir lahza

<sup>4</sup> Ushbu frazeologik birlikda hayvonlarga xos hid olish xususiyati insonga nisbatan qo'llaniladi.



parishonxotirlikka berilishi, hatto foydalanilayotgan manbaning yetarli darajada ishonchli emasligi oqibatida yuzaga keladi» [9,613].

3. Turk va o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning o'xshash jihatlari va ular orasidagi farqlarning asosiy sababi bu ikki xalqning turmush tarzi, geografiyasi, dini, tarixi va dunyoqarashidagi o'xshashliklardir. Asosiysi, bunday birliklarning tag-zamirida har doim inson va uni o'rab turgan moddiy olam turadi.

4. Atoqli turk adibi Rashod Nuri Guntekin qalamiga mansub "Choliqushi" romanining taniqli adib va tarjimon Mirzakalon Ismoilij tomonidan amalga oshirilgan tarjimasida so'z va ibora tanlash hamda "soxta ekvivalentlik" muammosi ko'rib chiqilgan ushbu maqola tarjimada muallif uslubining berilishi va tarjimon mahoratining namoyon bo'lishi mavzusida boshlangan yirik monografik tadqiqot ishining debochasi hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim.

#### Foydalanilgan adab'yotlar va manbalar:

[1] – Mannonov A. Hamidov X. Bebaho xazina ("Turkiy adabiyot durdonalari" tilimizda). Tarjimashunoslar forumi – 2022. Translation Forum – 2022 (Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami). 1-kitob – Toshkent: TDSHU, 2022. **Volume 2 | Special ISSUE 28 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor = 1.7.** - 447 b. B. 271-277.

[2] – "Turkiy adabiyot durdonalari". Rashod Nuri Guntekin. 41-jild. Choliqushi (roman – Mirzakalon Ismoilij tarjimasini). Adabiy-badiiy nashr. – Toshkent: 2022. – 415 b.

[3] – Guntekin, Reşat Nuri. Çalıkuşu (roman), 38. Baskı.–İstanbul, 1995.

[4] – Гунтекин Р.Н. Чолиқуши. Роман (турк. М.Исмөний тарж.) – Тошкент: 2002.

[5] – Рашод Нури Гунтекин, Чолиқуши, роман. Қайта ишланган иккинчи нашри. – Тошкент, 1965.

[6] – Саломов Ф. Таржима санъати (Илмий мақолалар тўплами). – Тошкент, 1973.

[7] – Турк тилидан амалий машғулотлар учун матнлар. Türkçe pratik dersler için metinler. – Тошкент: ТДШИ, 2007. – 160 б.

[8] – Исомиддинов З. "Алдоқчи сўзлар" билан баҳс // "Таржима санъати" (Мақолалар тўплами). 5-китоб. – Тошкент, 1980.

[9] – Yıldız Hüseyin. Karay Türkçesi ve Türkiye Türkçesi Arasındaki Yalancı Eş Değer Kelimeler. Makale, Gazi Türkiyat, Türklük Bilimi Araştırmaları Dergisi. -Güz, 2009. Sayı:5.

[10] – Türkçe Sözlük, Türk Dil Kurumu, 9. Baskı. 1.-2.C. – Ankara: 1998.